

## Talabalarga talablar

Kecha institutimiz rektori TIQXMIning O'quv ilmiy Markazida bo'lib, Geodeziya o'quv amaliyotini o'tayotgan YeRB fakulteti 2-kurs talabalari bilan uchrashdi. Rektor talabalar bilan suhbatda amaliyot davridagi yaratilgan sharoitlar, ularning amaliyotdan olgan bilim va ko'nikmalari haqida gaplashdilar. Talabalarga Prezidentimizning beshta tashabbuslari, ularni yoshlar orasida targ'ib qilishning mazmun va mohiyati haqida tushuntirib berdilar. Amaliyot davrida talabalar orasida o'tkazilgan sport haftaligi musobaqalari natijalari buyicha, jumladan, Futbol, Voleybol, Shaxmat va Shashka bo'yicha o'tkazilgan musobaqalar g'oliblarini taqdirladilar.



**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**